



**Barotova Shahnoza**

Termiz Davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti Texnologik ta'lim  
yo'nalishi 201-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Do'ppi, o'zbek xalqi va boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining milliy kiyimlaridan biri bo'lib, qadimiy va boy madaniyatimizning muhim qismidir. Bu kiyim boshni yopish uchun ishlatiladigan, o'ziga xos dizayni va shakli bilan ajralib turadigan an'anaviy bosh kiyimidir. Do'ppi boshni issiqdan hamda sovuqdan himoya qilish uchun foydalaniladi Ushbu maqolada asosiy do'ppining turlari do'ppining tarixi, uning ma'nosi, xalq orasida qanday qabul qilinishi va bugungi kunda uning zamonaviy shakllaridagi o'zgarishlari ko'rib chiqiladi. do'ppi turli viloyatlarda tyrlicha bo'lin naqsh bezaklari bilan ham farq qiladi

**Kalit so'zlar:** Do'ppi, Do'ppiturlari, Naqsh turlari, kuloh, araqchin, tus to'ppi, do'ppi tikish Do'ppi uchun mato tanlash texnologiyasi, do'ppi tarixi,

**Do'ppi haqida.** — O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do'ppi boshni issiqdan sovuqdan saqlash uchun kiyiladigan bosh kiyim Do'ppi turli hil viloyatlarda turli hilda tikiladi. Do'ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o'rtasida, Rossiyada esa XIII asrda rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, do'ppilari mavjud. Iroqi, Chust do'ppi, Gilam do'ppi, Chakma to'r, Zardo'ppi, To'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular naqshlari bezaklari bilan bir-biridan farqlanadi O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo'ladi. «Kuloh», «araqchin», «tusdo'ppi». Nomli turlari mavjud

**Kuloh-** konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpog'i. Uning mato hi toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Kuloh (erkaklar bosh kiyimi) judakam uchraydigan do'ppi hi

**Araqchin** — sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmato'r, iroqi chok usullarida tikiladi.

**Tus do'ppi** — Keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta yuvelir chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura,





yetalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisi-ning tepasiga kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Qadimgi davrlarda bosh kiyimga qarab o'zbeklarning etnik va lokal guruhlar bilan farq qilingan. Erkaklar boshiga asosan turli xildagi do'ppi (do'ppi, taqyo) kiygan, ayollar esa ko'pincha rang -barang ro'mol yopingan. Do'ppining dastavval tagini va gardishi (kizagi) ni ayrim holda tikib kashtalaganlar va mayda kavalab qo'shib tikkanlar. Biroz yapaloq yassi shaklda ichiga o'rab qog'oz bilan mayda qaviq qilingan do'ppilar asosan Farg'ona vodiysida ma'lum. Ayniqsa «Bodom» yoki «qalampir» chaqish oq ipak ip bilan tagi qora matolarga kashtalangan Chust do'ppisi nafaqat vodiya, balki Chustdan tashqarida ham mashhur. Tagi kashta qilinib, rang -barang gul shaklidagi Xo'jand-o'rtatepa do'ppilari butun O'zbekitonga tarqalgan. Odatda, do'ppiga nozik gul qadab tikiladi, ayrim ayollarning do'ppisiga mayda munchoq, marjonlar. Xorazmliklarda jiyak va popuk taqiladi. Ilgari konus shaklidagi do'ppilar Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda tarqalgan, endi esa Shahrisabzda saqlangan.

Bugungi kunda Respublika Davlat amaliy san'at muzeyida badiiy ijodiyotning mustaqil turi bo'lgan o'zbek do'ppilarining noyob namunalari saqlanadi. Xususan, Toshkentning «iroqi», «chorgul», «chamanda gul», «takdo'zi», «oqlar», Shahrisabzning «iroqi», «gilam do'ppi» deb ataluvchi turlari, Chustning qora satinga oq ipak bilan tikilgan «qalampir» nusxasi, Denov, Urgut, Samarqand va boshqa joylarda tayyorlangan do'ppilar bir-biridan o'ziga xos kashta gullari bilan ajralib turadilar, ulardan hayratlanmaslik mumkin emas.



Ayollar do'ppilarini bezashda asosan gullar, mevalar va qushlardan foydalaniladi. Gul naqshlari orasida keng tarqalgani atirgul, gulsapsar, chinnigul, lola, gultojxo'roz, olma gullari va boshqalar, mevalar orasida esa anor, olcha va gilos, bodom va qalampir tasvirlari va boshqalar hisoblanadi. Gullar ko'pincha yuqorida va





yon tomonda tasvirlanadi. Gullar ichidagi jihatlar, ayniqsa, ehtiyotkorlik bilan ishlanadi. Qushlar ham bezakning asosiy naqshini tashkil qilishi mumkin. Asosan, bu tustovuq, xo‘roz, bulbulning tasvirlaridir. Hunarmand ayollarning go‘zallikka, mukammallikka intilishi ularning mehnatini hunarmandchilikdan eng yuqori san‘at darajasigacha ko‘taradi.

Shunday qilib, *o‘zbek do‘ppisi bezagining barcha elementlari* — rangi, chiziqlari, rasmlari muhim ma‘no yuklamasiga ega bo‘lib, ko‘pincha hayot va o‘lim, yorug‘lik va qorong‘ulik, yer va osmon, yaxshilik va yomonlik kabi umumiy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘zbek do‘ppilari haqli ravishda butun dunyoda talabga ega. Chet ellik sayyohlar bunday bosh kiyimlarini g‘ayrioddiy yodgorlik sifatida sotib olishadi, aksariyat insonlar hatto ular bilan o‘z uylarini bezashadi. Shaxsiy foydalanish uchun esa do‘ppini istalgan bozorda va sayyohlik markazlaridagi maxsus sovg‘alar do‘konlarida xarid qilish mumkin.

"Do‘stlik" ordeni sohibasi, *marg‘ilonlik hunarmandning bichishicha* 1 metr 60 sm surp matosidan 20 ta iroqi do‘ppi tayyorlash mumkin. Dastlab, kanva (to‘r) yoki surpdan do‘ppining tepa va yon (kizak, gardish) tomonlari bichiladi. Ushbu jarayonda gardish 4 bo‘lakka ajratilib, qirqiladi. Kizakning uzunligi 56-60, eni 7,5-8 santimetr bo‘lishi kerak. Do‘ppi tepasining bo‘yi ham, eni ham 22 santimetr o‘lchamda kesiladi.

**Do‘ppi uch qismdan** – tepa (aylana va to‘rtburchak shaklida bichiladi), kizak (gardish shaklida) va jiyakdan iborat. Bichilgan matoning har bir qismi qora ipakda tekis chok berib ajratiladi. Do‘ppiga kashta tikishdan oldin, uning gul nusxalari andozasi chizib olinadi. Iroqi nusxa do‘ppilarida gullar ko‘pincha tepa va yon qismda alohida tasvirlanadi.

Do‘ppining to‘rt tomoni qog‘ozga chizib olingan naqsh asosida turli rangdagi ipaklarda kashtalanadi. Naqsh gullarining orasi esa oq ipak ip bilan to‘ldirib tikiladi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida Marg‘ilon iroqi nusxa do‘ppisining naqshiga ko‘ra, 100 ga yaqin turlari mavjud bo‘lgan. Ayni kunda “Gulnoz”, “Bulbul”, “Gullola”, “Bahor”, “Janon”, “Yong‘oq nusxa”, “Shabnam”, “Farg‘ona tong otguncha” kabi do‘ppi nusxalari tayyorlanib, do‘ppido‘zlar tomonidan yangi naqsh motivlari bilan boyitilmoqda.

Iroqi nusxa do‘ppi tepasiga kashta tikishda ko‘proq sanama chok qo‘llaniladi. Uning zaminiga ikki xil uslubda ipak ipda kashta bosiladi: “sanama”, (sanab tikish) yoki “chizma” (oldin chizib olib keyin tikish). 20 dona iroqi do‘ppisi bezagi uchun 400 grammdan 500 grammgacha turli rangdagi ipak ip ishlatiladi. Tabiiy bo‘yoq berilgan 1 kg ipak ip 1 mln. so‘m atrofida baholanadi.





Kashtalash jarayoni oxirigacha yetgach, dastlab do'ppining kizagiga qora baxmaldan jiyak o'rnatiladi va astarlanadi. Tapa qismga moslab qog'oz va astar ustma-ust joylashtiriladi. So'ngra gardish va tepa birlashtirilib, tayyor bo'laklar bir-biriga ulanadi va do'ppi holatiga keltirib tikiladi. 20 asr oxirigacha do'ppining astarlangan tepa qismi mayda nozik chokda qavilgan. Choklar orasiga paxta yoki qog'ozdan piltakachda yupqa qog'ozdan pilta qilingan. Piltalangan tepa qism va gardish biriktirilganda, do'ppi ko'rinishi hosil bo'lgan.

Tikish qilinayotganda tozalikka rioya qilinishi shart



#### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 2.6-sinf texnologiya kitobidan
- 3.WWW.Google.uz
4. WWW.ziyonet.uz

